

ATTRACTION AND ATTENTION OF WOMEN'S WRESTLING IN UZBEKISTAN

Hakimova Nargiza Uralovna

Termez State University of Physical Education and

Teacher of the Department of Sports Games

ANNOTATION

In order to train and improve the skills of young female wrestlers, it is necessary to study the personal characteristics of female wrestlers in the organization of sports, how it depends on the organization and conduct of sports.

Keywords and concepts: courage, endurance, injury, tension, morphological, functional.

INTRODUCTION

1999 yil 1 fevraldagi «Xalkaro Kurash Assotsiatsiyasini kullab - kuvvatlash to'g'risida»gi PF-2211-sonli O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoniga asosan, viloyatda xotin - kizlar kurashini yanada rivojlantirish, xotin - kizlarni mardlik, jasurlik, xalollik, insonparvarlik, Vatanga muxabbat ruxida tarbiyalash hamda ayollarni sport orkali soglomlashtirish ishlarini rivojlantirish, ayollar kurashi ommaviyligini oshirish maksadida 2005 yilning 6 sentyabrida «Xotin kizlar kurash federatsiyasi»ni tashkil kilish to'g'risida Surxondaryo viloyati xokimining 155-sonli karori kabul kilindi. 2006 yil 30 mart kuni 76-rakam bilan ruyxatdan utdi. Respublikada yagona hisoblangan «Xotin - kizlar kurash federatsiyasi» birinchi marta Surxondaryo viloyatida tashkil etildi. Federatsiyaning bulimlari sifatida viloyatning barcha shahar va tumanlarida «Barchinoy kurash klub»lari tashkil etildi va faoliyat kursatmokda. Yukoridagi mazkur karorlarga asoslanib, Madaniyat va sport ishlari vazirligining, O'zbekiston Respublikasi Kurash Federatsiyasining tashabbusi bilan 2006 yilning 14-16 aprel kunlari Termiz shaxrida xotin - kizlar urtasida birinchi marotaba O'zbekiston Respublikasi chempionati bulib utdi. Musobakada Surxondaryo viloyati terma jamoasi birinchi urinni egallab, jaxon chempionatiga ishtirok etish uchun Birlashgan Arab Amirligiga yullanma oldi. Ta'kidlash joizki, xotin - kizlar terma jamoamiz jaxon miqyosida yaxshi natijalarga erisha olmayapti. Buning birinchi sababi xotin- kizlar orasida erkaklarga nisbatan o'zbek kurashining ancha kiyin ommalasha boshlaganligi, kurash sport turlari fakat erkaklar sport turi hisoblanib kelganligidir. Ikkinchi sababi shundaki, xotin - kizlar kurashiga oldin erkaklar bilan mashgulot utkazuvchi murabbiylarning jalb kilinishidir. Amaliyot shuni kursatmokdaki xotin- kizlar mashgulotlarining barcha murabbiylari erkaklar bulib, kup joylarda ugil va kiz bolalar mashgulotlarga birga katnashadi. Uchinch sababi - erkak kurashchilarning mashgulotlari metodikasi, tuzilishi, yuklamalar me'yori, ayollar kurash mashgulotlaridan tubdan farq kiladi. Amaliyotda murabbiylar erkaklar kurashi mashgulotlari kanday bulsa, shundayligicha uzgarishlarsiz «kuchirib» kuymokdalar. Birok, xotin - kizlar organizmi bir kator morfologik va funksional xususiyatlari bilan erkaklarnikidan farq kiladi. Bu xolatlar hisobga olinmayapti. Yukoridagi kamchiliklar kupol pedagogik xatolar hisoblanib, jaroxatlanish, zurikishlar sport natijalarining bekarorligi va xotin-kizlarning kurash mashgulotlariga kizikishining pasayishi kabi illatlarga olib kelishi mumkin. Tashkiliy-boshkarish ishini xal kilishdan tashkari, yukori

darajali xotin-kiz kurashchilarni tayyorlash tizimini takomillashtirish lozimdir. Ayollar sporti kurashi turlari tarakkiyotida, ularning sogligiga salbiy okibatlar keltirib chikarmasdan yukori sport natijalariga erishishning samarali yullari ustida maxsus tadkikotlar utkazish maksadga muvofikdir.

Sportchi yakka kurashda harakat malakalarining shakllanishi fiziologik jihatdan shartli reflekslar mexanizmi bo'yicha yuzaga keladi. I.P.Pavlov va uning shigirdlari tomonidan olib borilgan ishlar shartli reflekslar shartsiz reflekslar asosida yuzaga kelishini ko'rsatgan. Buning uchun birorta shartli ta'sirlovchining ishga tushirilishi shartsiz ta'sirlovchi bilan kuzatilgan. Shartli va shartsiz ta'sirlovchilarni bunday tartibda (barobariga yoki ketma-ket) burilishi bir necha marta takrorlanganda odamda shartli harakat refleksi yuzaga keladi, ya'ni faqat shartli ta'sirlovchi bo'lganda unga javob harakat reaksiyasi kuzatilgan. Bunday shartli reflekslar birinchi tartibli shartli reflekslar deb yuritiladi. Hozirgi zamonda shartli harakat reaksiyalari, harakat dasturining shakllanishini va dinamik stereotipning funksional ahamiyati haqida aniq ma'lumotlar mavjud bo'lsada ularning bosh miya yarim sharlar po'stlog'ida mexanizmlarning hosil bo'lishi, vaqtincha funksional bog'lanishlarning shakllanishi haqida aniq ma'lumotlar yo'q. Kurashda hosil bo'lishining hamma bosqichlarida uning ham mushak, ham vegetativ komponentlari shakllanadi. Vegetativ funksyalarning boshqariluvchi mexanizmga nisbatan ancha sekin bo'ladi. Harakat analizatorining doimiy component bo'lishining integrativ (sintetik) tomonlari o'rganilmagan. Bu sohada adabiyotlarda uning reflektor mexanizmi aniq o'rganilgan bo'lsada, propriotseptiv signal haqidagi ma'lumotlarni adabiyotlarda uchramadik. Yana bir masala haqida kelishib olaylik. Ma'lumki, bir qancha siport turlarida (kurash, boks, sport uyinlari vashunga uxshashlar) harakat bir necha marta to'xtalib, qaytadan boshlanadi. Bunday sharoitlarda kurashchi qisqa vaqt ichida yuzaga kelgan vaziyatni baholashi va unga mos holda harakat qilishi kerak bo'ladi. Bunday sharoitlarda afferent sintez va qayta bug'lanish mexanizmlariqanday tashkil topadi? Oldindan ma'lum bulgan harakat dasturi bosh miya yarim sharlar po'stlog'ining qaysi harakat markazlari orqali amalga oshiriladi? Bu masala hozirgacha o'z echimini topmagan, desak mubolag'a bulmaydi.

Shu bilan birga aytish kerakki, sportning ma'lum to'ri bilan shug'ullanishda orttirilgan tajribalar, harakat malakalari boshqa sport turi bilan shug'ullanishda ekstrapolyatsiya imkoniyatini oshirolmaydi. Masalan, Sport o'yinlaridan futbolda orttirilgan tajribalar boks yoki kurashdagi harakat usullarini ishlatish yo'li bilan qo'llashga yetarli bo'lmaydi.

Foydalanilgan Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 28 may 1999 yil qarori «O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirish choratadbirlari to'g'risida»gi 271- qarori
2. Столбов В.В. История физической культуры и спорта. М., 1975.
3. Галковский Н.М., Керимов Ф.А. Вольная борьба, Т., 1987.
4. Керимов Ф.А. Спорт кураши назарияси ва усулияти. Т., 2001
5. Керимов Ф.А. Спорт кураши назарияси ва усулияти. Т., 2005.